Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 03-noyabr 2026-yil

IJTIMOIY LINGVISTIK PROFILNING SHAKLLANISH MODELI

Mirzaaxmedova Yulduzxon Anvarovna
ADChTI mustaqil izlanuvchisi (DSc)
“University of economics and pedagogy” NOTM
Xorijiy tillar kafedrasi v.b.professori, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu tezisda terminologik birliklar kasbiy bilim maydonini, institutsional birliklar professional jamoaga daxldorlikni, faoliyat fe’llari kasbiy amaliyotni, baholovchi vositalar esa kasbiy mezonlarni ifodalaydi. Ularning bir matn doirasida uyg‘unlashuvi kasbiy profilni yanada aniq ko‘rsatadi. Demak, kasbiy mansublikning lingvistik profili terminologik aniqlik, professional leksika, institutsional xoslanish, kasbiy faoliyatni ifodalovchi birliklar, kasbiy baholash va murojaat shakllarining o‘zaro birikuvi asosida shakllanadi. Ijtimoiy profil bilan umumiy jihatlar, xususan, xoslanish, baholash va jamoaviylik mavjud bo‘lsa-da, kasbiy profilning asosiy semantik markazi faoliyat sohasi, professional bilim, kompetensiya va institutsional mansublik bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: til, ijtimoiy mansublik, komment mazmuni, kasbiy muhit, shaxs, baholash strategiyasi, munosabat natijalari.

Mazkur model ijtimoiy mansublikni bitta leksik birlik orqali emas, balki leksik, grammatik, semantik va pragmatik vositalarning o‘zaro aloqasi orqali tavsiflash zarurligini ko‘rsatadi. Shu asosda keyingi bosqichda kasbiy mansublikning lingvistik profili ko‘rib chiqiladi; bunda kasbiy terminologiya bilan bir qatorda professional mansublik, institutsional mansublik, kasbiy baholash va ta’limiy mazmunning o‘zaro munosabati tahlil qilinadi.

Kasbiy mansublikning lingvistik profili

Kasbiy mansublikning lingvistik profili ijtimoiy profilga nisbatan tor semantik maydonda shakllansa-da, uning lingvistik belgilari ancha farqli xususiyatga ega. Kasbiy

mansublik shaxsning qaysi faoliyat sohasi bilan bog‘liqligini bevosita nomlovchi birliklar emas, balki kasbiy tajriba, bilim, malaka, institutsional muhit va shu sohaga xos baholash mezonlarini ifodalovchi vositalar orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli kasbiy profilni tavsiflashda termin, professionalizm, kasbiy murojaat, institutsional nom, faoliyatga oid fe’llar va baholovchi birliklarning o‘zaro munosabatiga e’tibor qaratiladi.

Korpus materiallarida kasbiy mansublikning eng aniq ko‘rsatkichlaridan biri kasbiy faoliyatga oid leksik birliklardir. Muayyan kasb yoki faoliyat sohasi bilan bog‘liq terminlar nutqda kommunikativ vaziyatning professional xususiyatini belgilaydi. Masalan, ta’lim sohasiga oid *dars, o‘qituvchi, talaba, universitet, professor, imtihon, ilmiy ish* kabi birliklar o‘z-o‘zicha kasbiy mansublikni qat’iy belgilamasligi mumkin. Biroq ular bir kontekstda muntazam ravishda birlashganda ta’limiy-kasbiy semantik maydon yuzaga keladi. Demak, kasbiy markerning diagnostik qiymati uning lug‘atdagi mavqeyidan ko‘ra kontekstual birikuvchanligi bilan kuchayadi.

Kasbiy profilning muhim qatlamlaridan biri terminologik leksikadir. Terminlar muayyan fan yoki faoliyat sohasi doirasidagi tushunchalarni aniq nomlaydi. Masalan, lingvistika bilan bog‘liq korpus, annotatsiya, morfologiya, sintaksis, korpus lingvistikasi kabi birliklar bir matn doirasida ketma-ket yoki o‘zaro bog‘langan holda qo‘llansa, nutq egasining muayyan akademik-kasbiy muhitga yaqinligini ko‘rsatadi. Bunda terminning o‘zi emas, balki terminlar tizimi kasbiy profilni kuchaytiradi.

Kasbiy mansublikni ifodalashda professionalizmlar ham alohida o‘rin tutadi. Terminlar rasmiy va ilmiy nomlashga yaqin bo‘lsa, professionalizmlar muayyan kasb egalari kundalik muloqotida faol ishlatiladigan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ko‘pincha qisqalik, kommunikativ qulaylik va guruh ichidagi tushunarlilik bilan ajralib turadi. Shu jihatdan professionalizmning qo‘llanishi nafaqat kasbiy faoliyatni, balki kasbiy kommunikativ muhitga daxldorlikni ham ko‘rsatadi.

Kasbiy profilning yana bir muhim belgisi institutsional mansublikni bildiruvchi birliklardir. *Universitetimiz, fakultetimiz, kafedramiz, maktabimiz, jamoamiz, hamkasblarimiz* kabi shakllarda kasbiy muhit bilan bog‘liq obyekt nomi jamoaviy egalik

shakli bilan birlashadi. Bunday qurilmalarda kasbiy va ijtimoiy mansublik bir nuqtada kesishadi. Masalan, *kafedramiz* birligi nafaqat muayyan institutsional obyektni, balki so‘zlovchining shu professional jamoaga daxldorligini ham bildiradi.

Ayniqsa, *-imiz* egalik shaklining bunday birliklar bilan qo‘llanishi kasbiy mansublikni ifodalashda grammatik jihatdan muhimdir. *Universitetimiz, ustozlarimiz, talabalarimiz, hamkasblarimiz* kabi birliklarda egalik ma’nosi shaxsning professional guruh bilan munosabatini ko‘rsatadi. Shu bois kasbiy profilning grammatik qatlamida birinchi shaxs ko‘plik shakllari ijtimoiy profil bilan umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, ularning ifodalagan mazmuni farqlanadi: ijtimoiy profil ko‘proq milliy yoki keng jamoaviy birlikka, kasbiy profil esa muayyan faoliyat va institutsional guruhga yo‘naladi.

Kasbiy mansublikning yana bir belgisi faoliyat jarayonini ifodalovchi fe’llar orqali namoyon bo‘ladi. *O‘qitmoq, tadqiq qilmoq, tahlil qilmoq, tarjima qilmoq, davolamoq, loyihalamoq, dasturlamoq* kabi fe’llar muayyan kasbiy faoliyatni bevosita ifodalaydi. Bunday birliklarning kasbiy nomlar va terminlar bilan birgalikda qo‘llanishi kasbiy profilni yanada aniqlashtiradi. Masalan, *maqolani tahlil qilish, korpusni annotatsiyalash, darsni tashkil* etish kabi birikmalarda faoliyat nomi emas, aynan kasbiy harakat modeli ifodalanadi.

Kasbiy profilning semantik tuzilishida ta’lim va malaka bilan bog‘liq birliklar ham muhim o‘rin tutadi. Korpusda VAL_EDU 216 ta izohda qayd etilgani ushbu qatlamning alohida ko‘rinishini tashkil etadi. Ta’limga oid birliklar *bilim, ta’lim, ustoz, talaba, dars, universitet, ilm, o‘qish* kabi leksik birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Ularning kasbiy profilga aloqasi, ayniqsa, ta’lim jarayoni, mutaxassis tayyorlash yoki kasbiy rivojlanish kontekstida kuchayadi. Biroq ta’limiy marker bilan kasbiy marker bir xil hodisa emas. Masalan, *talaba* so‘zi ta’limiy mansublikni bildirishi mumkin, lekin uning kasbiy mazmuni faqat muayyan kontekstda yuzaga chiqadi. *Talabalarimizning ilmiy loyihalari, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish* kabi birikmalarda ta’lim va kasbiy faoliyat o‘zaro bog‘lanadi. Demak, kasbiy profilni aniqlashda markerning tematik sohasi bilan bir qatorda uning kommunikativ vazifasi ham hisobga olinishi lozim.

Kasbiy mansublikni tavsiflovchi yana bir muhim vosita – kasbiy baholash. Muayyan

kasb doirasida *malakali, tajribali, professional, mas’uliyatli, savodli, puxta* kabi baholovchi birliklar shaxs yoki faoliyatni umumiy emas, aynan kasbiy mezonlar asosida tavsiflaydi. Masalan, *tajribali ustoz, malakali mutaxassis, professional yondashuv, ilmiy jihatdan puxta ish* kabi birikmalarda baho kasbiy kompetensiya bilan bog‘langan. Shu sababli baholash markerining kasbiy profilga mansubligi uning semantik obyekti orqali aniqlanadi. Bu jihat ijtimoiy profil bilan qiyoslaganda, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi. Ijtimoiy profilda *hurmatli, yaxshi, ajoyib, aziz* kabi birliklar shaxs yoki guruhga nisbatan umumiy ijobiy munosabatni ifodalashi mumkin. Kasbiy profilda esa baholash ko‘proq kompetensiya, natija, tajriba va faoliyat sifatiga qaratiladi. Demak, bir xil ijobiy baholovchi birlik turli kontekstda turlicha diagnostik qiymat kasb etadi.

Kasbiy profilning muhim lingvistik belgilaridan yana biri kasbiy murojaat shakllaridir. *Ustoz, professor, doktor, hamkasb, muallim, mutaxassis* kabi birliklar shaxsni kasbiy maqomi asosida nomlaydi. Bunday murojaatlar nafaqat muayyan shaxs yoki guruhni ko‘rsatadi, balki pragmatik vazifani ham bajaradi. Masalan, *ustoz* shakli kasbiy maqomni bildirishi bilan birga hurmat va ijtimoiy masofani ham ifodalashi mumkin. Hamkasb esa shaxslar o‘rtasidagi kasbiy tenglik va umumiy faoliyatga daxldorlikni ko‘rsatadi. Shu nuqtada kasbiy mansublikning lingvistik profili quyidagi asosiy komponentlar orqali umumlashtiriladi (qarang: 4.3.2-chizma):



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жунусова Ж.Н., Тулегенова М.К. Социокультурная обусловленность лексических единиц молодежного социолекта // Вестник ЕНУ им. Л. Н. Гумилева. Сер.: Филология. – 2023. – № 1 (142). – С. 76-84.

2. Иголькина Н.И. Профессиональные сообщества в социальных сетях как неформальная система повышения квалификации педагогов английского языка // Профессиональное образование и социокультурная среда. – 2019.

3. Крысин Л.П. Социальная маркированность языковых единиц // Вопросы языкознания. – 2000. – № 4. – С. 26-42.

4. Морозова О.А. Классификация и систематика социальных диалектов // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Сер.: Гуманитарные науки. – 2016. – № 2. – С. 162-64.

5. Мухина Н.Б., Шайхутдинова Т.Н. Лингвистические маркеры выражения побудительной цели речевого действия говорящего // МНКО. – 2016. – № 6 (61).

6. Тимофеев В.Л. Язык как явление. Языковые единицы // Филологические науки. – С. 142-152.

7. Тимофеев В.П. Живые жаргоны и живучее просторечие // III Житниковские чтения: материалы Всерос. науч. конф. – Челябинск, 1999. – Ч. 2. – С. 128-134.